

ALEKSANDR DYUMANING JAHON ADABIYOTIDAGI O'RNI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filali o'zbek tili yo'nalishi 2 kurs talabasi

Abdurasulova Ziyoda Davronbek qizi

Anotatsiya: Mazkur maqolada Aleksandr Dyumaning hayoti va ijodi, uning mashhur asarlari badiiy uslubi adabiyotga qo'shgan hissasi hamda jahon miqyosida tutgan o'rni haqida bat afsil tahlil qilinadi. Yozuvchining "Uch mushketyor", "Graf Monte - Kristo", "Qirq besh" kabi mashhur asarlaridagi badiiy xususiyatlar obraqi yaratish mahorati va syujet qurilishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, Dyuma ijodning xalqchil ruhiyati, o'quvchilar qalbida uyg'otgan badiiy - estetik zavqi va uning keyingi davr adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar :

Aleksandr Dyuma, fransuz romantizimi, tarixiy roman, jahon adabiyoti, syujet qahramon, adabiy meros, xalqchilik.

Annotation: In this article, the life and work of Alexandre Dumas, his famous works, the contribution of his literary style to literature, and his place on the world stage are analyzed in detail. The artistic features, character creation skills, and plot construction in the writer's well-known works such as *The Three Musketeers*, *The Count of Monte Cristo*, and *The Forty-Five* are examined on a scientific basis. In addition, Dumas's popular spirit, the artistic and aesthetic pleasure awakened in readers' hearts, and his influence on the literature of the following period are also studied.

Keywords: Alexandre Dumas, French Romanticism, historical novel, world literature, plot, character, literary heritage, populism.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются жизнь и творчество Александра Дюма, его знаменитые произведения,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

художественный стиль, вклад в литературу и место в мировой культуре. Рассматриваются художественные особенности таких известных произведений писателя, как «Три мушкетёра», «Граф Монте-Кристо», «Сорок пять», мастерство создания образов и построение сюжета на научной основе. Также изучается народный дух творчества Дюма, художественно-эстетическое наслаждение, пробуждённое в сердцах читателей, и его влияние на последующую литературу.

Ключевые слова: Александр Дюма, французский романтизм, исторический роман, мировая литература, сюжет, герой, литературное наследие, народность.

XIX asr fransuz adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri Aleksandr Dyuma. U o'zining sermahsul ijodi, xalqchil uslubi va tarixiy-sarguzasht romanlari bilan fransuz adabiyotida alohida o'rinni tutadi. Uning tarixiy va sarguzasht ruhidagi asarlari nafaqat fransuz kitobxonlari, balki butun dunyo o'quvchilari orasida shuhrat qozongan. Kitoblarini o'qilishi oson, mazmunli bo'lgani sababli jahon adabiyotida ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Dyuma ijodi tarixiy faktlar dramatik voqealar uyg'unligi bilan ham ajralib turadi. Dyuma romanlarida insoniy qadriyatlar bosh mavzu sifatida ko'tariladi. Dyuma ijodining asosiy qismi tarixiy voqealarga bag'ishlangan romanlardan iboratdir. Mana masalan, "Uch mushketyor" ushbu asarda u, do'stlik, sadoqat va jasorat kabi umuminsoniy qadriyatlarni tarranum etgan. "Graf Monte-Kristo" romanida esa ezbilik uchun kurash masalalari yuksak badiiy aks etirillgan. Dyuma o'z davrida asarlarini gazeta va jurnallarda bo'lib-bo'lib e'lon qilib, adabiyotni keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashtirgan. Bu jihat bilan u "Xalq yozuvchisi" nomiga sazovor bo'lган. Asosan u o'z romanlari voqealariga dramatik tus beradi. Qahramonlarni jonli xotirada qoladigan obrazlar sifatida mahorat ila tasvirlaydi. Dyuma asarlaridagi dinamik syujet va keskin voqealar oqimi kitobxonlarni o'ziga tortadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Dyuma romanlari xalq adabiyotiga yaqin turadi. U sodda til, ravon ifodalar va hayotiy hikoyalar orqali o'quvchiga murojat

qiladi. Shu bois uning kitoblari nafaqat adabiyot Ixlosmandlariga balki, butun kitobxonlar ommasiga birdek manzur bo'lgan.

Aleksandr Dyumaning jahon adabiyotidagi o'rnini uning asarlarini butun dunyo tillariga tarjima qilinganidan ham ko'rish mumkin. Ko'plab romanlari kino va teatrga moslashtirilgani yozuvchining nafaqat adabiyot balki san'at rivojiga ham ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Dyuma romanlari keyingi asr yozuvchilari uchun sarguzasht janrda katta mакtab vazifasini o'tadi. Adabiyotshunoslar Dyumaning romantik tarixiy roman maktabining yirik vakili sifatida ham baholaydilar. Shuningdek, "Qirq yil o' tgach", "Vikont de Brazhelon" kabi asarlari ham fransuz adabiyoti tarixini o'ziga xos badiiy talqin orqali tasvirlab berdi. Dyuma o'z ijodiy faoliyati davomida 300 dan ortiq roman, drama va boshqa janrdagi asarlar yaratgan. U ko'pincha yozuvchilar bilan hamkorlik qilgan. Eng mashhur hamkorlardan biri Ogust Maken bo'lib, ko'plab mashhur romanlar syujetini birgalikda ishlab chiqqan. Biroq, asarlarining badiiy kuchi va xalqchil ruhini yaratishda Dyumaning o'zi yetakchi ro'l o'ynagan. Shu tariqa Aleksandr Dyuma oddiy sharoitdan chiqqan bo'lishiga qaramay o'zining mehnati, iste'dodi va ijodiy qobiliyati bilan XIX asr fransuz va jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan biriga aylandi. Shunday qilib, Aleksandr Dyuma jahon adabiyotida sarguzasht romanlari ustasi xalq yozuvchisi va romantik tarixiy roman maktabining yirik vakili sifatida abadiy nom qoldirdi. Uning asarlari bugungi kunda ham millionlab kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda va insoniyatni do'stlik,adolat va ezgulik sari chorlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dyuma, A. Uch mushketyor. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
2. Dyuma, A. Graf Monte-Kristo. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
3. Coward, D. Alexandre Dumas: A Critical Biography. Oxford: Oxford University Press, 2000.
4. Bray, W. The Life and Works of Alexandre Dumas. London: Routledge,

2015.

5. Моря, А. История французской литературы. Москва: Прогресс, 1989.
6. Голубев, В. Французский исторический роман XIX века. Москва: Наука, 1972.
7. Shippey, T. The Classical Legacy of Alexandre Dumas. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
8. Эйхенбаум, Б. О прозе Александра Дюма. Ленинград: Academia, 1939.